

Uzbekistan Airways “O‘zbekistonlik. Generating Ideas” forumi hamkori

2023 25 Aprel

23-aprel kuni Parijda “O‘zbekistonlik. Generating Ideas” xalqaro forumi hamda “Orol orzusi”ning yangi loyihalari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Bu Uzbekistan’s Club ijodiy guruhi tomonidan o‘tkazilayotgan ikkinchi xalqaro tadbir hisoblanadi. “O‘zbekistonlik” deb nom olgan ilk forum 2022-yilning 1-oktabr kuni Germaniya poytaxti Berlin shahrida o‘tkazilgan edi.

Parijdagi forumda turli mamlakatlarda ko‘plab sohalar bo‘yicha xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlarga erishgan, jahon andozasi darajasidagi mutaxassislarga aylangan 200 dan ortiq o‘zbekistonlik vatandoshlar ishtirok etdi. Uzbekistan Airways “O‘zbekistonlik. Generating Ideas”ning rasmiy hamkori hisoblanadi.